

**OQCHADARYO HAVZASI VA QUYI ZARAFSHON HUDUDIDA NEOLIT  
DAVRI URUG‘ JAMOALARIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR  
TARIXI SAHIFALARIGA DOIR BA‘ZI BIR MULOHAZALAR**

**G‘affarov Maqsadbek Qadamboyevich**

Urganch davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

E-mail: [gaffarovmaksad@gmail.com](mailto:gaffarovmaksad@gmail.com)

*Annotatsiya:* Maqolada Oqchadaryo havzasi hamda Quyi Zarafshon vodiysi hududlarida neolit davri aholisining iqtisodiy-etnomadaniy aloqalari tarixi yoritilgan.

*Kalit so‘zlar:* B.V.Andriyanov, A.V.Vinogradov, P.Baratov, M.Mamatqulov, A.Rafiqov, A.Muhammadjonov, V. S.P.Tolstov, N.Xolmatov, B.I.Vaynberg, M.A.Itina, Oqchadaryo, Quyi Zarafshon, Amudaryo, Sirdaryo, Qoraqum, Sariqamish, Qizilqum.

**НЕКОТОРЫЕ РАССУЖДЕНИЯ О СТРАНИЦАХ ИСТОРИИ ПРОШЛЫХ  
ЭТНИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ПЛЕМЕННЫХ ОБЩИНАХ ЭПОХИ  
НЕОЛИТА В АКЧАДАРЬИНСКОМ ВОДОЁМЕ И В ТЕРРИТОРИЯХ  
НИЖНЕГО ЗАРАФШАНА**

**Гаффаров Максadbек Кадамбоевич**

Ургенчский государственный университет, независимый исследователь

E-mail: [gaffarovmaksad@gmail.com](mailto:gaffarovmaksad@gmail.com)

*Аннотация:* В статье освещены истории экономические и этнокультурные связи население неолитического периода территории Акчадарьинском дельте и Низовья Зарафшана.

**Ключевые слова:** Б.В.Андрянов, А.В.Виноградов, П.Баратов, М.Маматкулов, А.Рафиков, А.Муҳаммаджонов, В. С.П.Толстов, Н.Холматов, Б.И.Вайнберг, М.А.Итина, Акчадарья, Низовья Зарафшан, Амударе, Сырдаре, Каракум, Сарыкамыш, Кизилкум.

**SOME FEEDBACKS REGARDING THE PAGES OF THE HISTORY OF  
ETHNIC PROCESSES IN CLAN COMMUNITITIES EXPERIENCED  
NEOLITHIC PERIOD IN OKCHADARYA BASIN AND LOWER  
ZARAFSHAN REGION**

**Gaffarov Maqsadbek Kadamboevich**

Urganch State University, independent researcher

E-mail: [gaffarovmaksad@gmail.com](mailto:gaffarovmaksad@gmail.com)

**Abstract:** *The article describes the history of socio-ethnocultural relations of the inhabitants of the Neolithic period in the Okchadarya basin and the Lower Zarafshan valley.*

**Key words:** *B.V. Andeyanov, A.V. Vinogradov, P. Baratov, M. Mamatichnov, A. Rafikov, A. Muhammadjonov, V. S.P. Tolstov, N. Kholmatov, B.I. Weinberg, M.A. Itina, Akchadarya, Lower Zarafshan, Amudarya, Syrdarya, Karakum, Sarikamish, Kyzylkum.*

**Kirish va dolzarbligi**

Oʻrta Osiyo markazida joylashgan Oʻzbekiston hududi geologik taraqqiyoti davrlarida bir qator muhim paleotektonik va paleogeografik jarayonlar kechgan, bu holat bir necha marta takrorlanishi, uchlamchi va toʻrtlamchi davrlarda kechgan jarayonlar bilan bogʻliq boʻlgan.<sup>1</sup> Vatanimiz hududi geologik taraqqiyoti mobaynida murakkab jarayonlari obʻekti boʻlganligi bois, uning relʻefi xilma-xilligini togʻlik va

---

<sup>1</sup> Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. –Тошкент. “Ўқитувчи”. 1996.

tekislik hudud tashkil etib, tekislik hududi 70 %, tog'lar esa 30 % ni hosil qilgan. Zaminning geografik o'rni qulayligi Turon markazida joylashishi, tabiiy sharoiti qulay, tabiiy resurslariga seroblighi, Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Surxondaryo va Janubiy Orolbo'yi hududlari odamzodning kelib joylashib, mavjud bo'lgan tabiiy manbalardan o'z manfaatlariga xizmat qilishiga imkoniyat yaratgan<sup>2</sup>.

Sharqiy tarixiy-geografik hududlar Oqchadaryo havzasi va Quyi Zarafshon tekisligi bo'lib, geologik taraqqiyoti davrida kechgan tektonik harakatlar natijasi bo'lgan. Xorazm ekspeditsiyasi hodimlari asarlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, mill avv VI-V ming yilliklarda Amudaryo asosiy suvi bilan Qoraqumni ikki qismga ajratib, Xorazm vohasiga kelib, uni ham o'ng va so'l sohili hududlariga ajratgan. Mazkur hududlarning sernam va serunum bo'lishi Amudaryo faoliyatining ming-minglab yillar mobaynida suv tarkibidagi loyqa qatlamlarni yotqizishi natijalari bilan izohlash mumkin.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, bundan 4-3 million yillar ilgari Qizilqum-Orol va Sariqamishbo'yi – Orol hududlari tekislik bo'lgan<sup>3</sup>. Arxeologik adabiyotlardan ma'lumki, O'rta Osiyo hududi Qaynazoy erasi to'rtlamchi davrida yuz bergan jarayonlar eopleystosen davrida tekislik va pleystotsen muzliklar jarayonida 500 ming yillikdan 12 ming yilliklargacha davom etgan<sup>4</sup>. Tadqiqotchilar tomonidan chop qilingan monografiyalarda tosh asri ilk bosqichiga oid ovchilarni manzilgohlari to'g'risida ma'lumotlarni kuzatish qiyin. E.A. Vinogradova ma'lumotlariga ko'ra, Sulton Uvays tog'ida etagida Burli-3 manzilgohi so'ngi tosh davriga mansub bo'lgan<sup>5</sup>. Demak, Sulton Uvays tog'i atroflari pleystotsen muzligining Vyurm davrida (40-12 ming yilliklar) odamzodning faoliyat olib borishi uchun qulay geografik muhit, iqlim sharoit va tabiiy manbalar mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Zarafshon vodiysi shimoli-g'arbiy hududi Qoratog' tizimida qadimshunoslar

<sup>2</sup> Баратов П, Маматкулов М, Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. – Тошкент. “Ўқитувчи”. 2002.

<sup>3</sup> Виноградов А.В, Итина М.А, Кесь А.С, Мамедов Э.Д. Палеогеографическая расселения человека в пустынях Средней Азии//Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене.- М, Наука. 1974.

<sup>4</sup> Кабилов Ж. Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси.- Тошкент.1990.

<sup>5</sup> Виноградова А.В. Первые палеолитические находки в Султануиздаге //Археология Приаралья в древности и средневековье. –М. Наука. 1998.

tomonidan Uchtut, Ijond va Vaush makonlari madaniy qatlamlaridan chaqmoqtoshdan yasalgan tosh qurollar, ya'ni qo'l chopqi, nukleuslar, uchrindi qoldiqlari olinib, ular ashel davri ilk bosqichiga oid bo'lgan. Demak, Vaush va Ijand manzilgohida istiqomat qilgan odamzod Uchtut va Kavobi shaxta-ustaxonalari manzilgohidan foydalanib, xilma-xil vazifani bajaradigan mehnat qurollarini o'z manfaatlariga hizmat qildirib, Zarafshon vodiysida etnik munosabatlarini olib borganlar. Ammo, ovchilarning safdoshlari olamdan o'tganlarni joylashtirgan dafn inshootlari to'g'risida tadqiqotchilar asarlarida ma'lumotlar uchramaydi. Manzilgohlar madaniy qatlamlaridan olingan tosh qurollar ovchilarning oziq-ovqat kundalik ehtiyojlarini qondirgan.

### **O'rganilish darajasi**

XX asr 70 yillari o'rtalarida Qoraqalpog'istonlik arxeologik olim E.Bijanov tomonidan Ustyurt hududidagi dala amaliyoti davrida ro'yxatga olingan Borsa-Kelmas janubi-g'arbida Esen-2, shimoli-sharqiyda Qoraquduq, Shaxpaxta havzasi, Churuk hududlari atroflarida hamda Ustyurt g'arbiy qismida Qorinjariq hududlari ashel davriga oid tosh qurollar olingan<sup>678</sup>. Tadqiqotchilar asarlarida ovchilarning mozor-qabrlar to'g'risida ma'lumotlar kuzatilmaydi, lekin manzilgohlar mavjudligi, ularda istiqomat qilgan ovchilarning Qoratog' kon sanoati ashyolaridan unumli foydalanib, kasbi-korlarini belgilab olishi barobarida etnik jarayonlarni olib borganlar degan xulosa asosida etnografiya ma'lumotlarni qayd qilish mumkin.

### **Tadqiqot natijalari**

Miloddan avvalgi 12-7 ming yillarga kelganda Oqchadaryo havzasi va Quyi Zarafshon oralig'i geografik manzarasida tub o'zgarishlar yuz bergan. Tabiiy haroratning yuqori ko'tarilishi munosabati natijasida bepayon tekislik qoplab olgan muzlikning shimoliy tomon chekinishi natijasi bilan bog'liq bo'lgan. Shu munosabat bilan Sho'raxon-Sulton Uvays va Quyi Zarafshon vodiysi tevarak-atroflari bir-birini

---

<sup>6</sup> Ягодин В.Н, Бижанов Е.Б. Археологические работы на Устюрте//АО 1973 года. – М. Наука. 1974.

<sup>7</sup> Бижанов Е.Б. Верхнепалеолитические местонахождения с Юго Восточного Устюрта//Вестник ККФ. АН УзССР. №1.1980.

<sup>8</sup> Бижанов Е.Б. О находках памятников каменного века впадины Шахпахты // Вестник ККФ. АН УзССР. №1.1983.

geografik jihatdan takror qilgan Qizilqum sochma qum uyumlari oralig'idagi botiqlar sernam va serunum bo'lib, odamzodning kelib joylashib bosqichma-bosqich o'zlashtirib, turmush-tarzi yo'nalishlarini belgilab olib borishda istiqbolli imkoniyatni hosil qilgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, miloddan avvalgi VI-V ming yilliklarga kelganda Amudaryo asosiy suvi So'raxon qishlog'i shimolidan Qizilqum tomon ajralib chiqqan Oqchadaryo irmog'i 25 km yo'nalishi jarayonida Yonboshqal'a balandligi to'sqinlik qilishi natijasida nishoblashgan shimoliy tomon tik yo'nalib uchburchak shaklda botiqqa suvni olib borgan. Shu tariqa, o'ng sohil Qizilqum geografik holatini janubiy va shimoliy Oqchadaryo havzasi hosil qilgan<sup>910</sup>.

### Xulosa


Sug'orma sharqning barcha mayda, o'rtamiyona va katta hajmli maqomiga ega bo'lgan daryolar havzasi singari O'rta Osiyo yirik daryolari Amudaryo va Zarafshon daryolari asrlardan asrlar mobaynida qadimgi dehqonchilik madaniyati vujudga kelishiga omil bo'lgan sug'orish tarmoqlari, suv inshootlari barpo qilinishi hamda sug'orma xo'jalikning rivojlanishiga imkon yaratgan. O'rta Osiyo tarkibiy qismi bo'lgan Xorazm vohasi hamda Quyi Zarafshon vodiylariga odamzodning kelib joylashib, ko'p tarmoqli xo'jalik sohalarining rivojlanishida aholining farovon hayot va noyob ixtirolarini kashf etishiga imkon yaratgan.



1-rasm. Quyi Zarafshon Uchashi 31 manzilgohi

<sup>9</sup> Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья (II-начало I тысячелетия до.н.э) // ТР ХАЭЭ-М: Наука, 1977-№X.

<sup>10</sup> Виноградова А.В. Первые палеолитические находки в Султануиздаге //Археология Приаралья в древности и средневековье. –М. Наука. 1998



2-rasm. Oqchadaryo havzasi Tolstov manzili

Arxeologik adabiyotlarda qayd qilinishicha, Quyi Zarafshon vodiysi neolit davri geografik manzarasi, antropogen landshaftini hilma-xilligini Zarafshon daryosi va irmoqlari Daryosoy, Gujayli, Mohandaryo faoliyati natijasi bo'lgan. Amudaryo suv ta'minoti barqaror bo'lganligi natijasida faoliyat olib borgan Oqchadaryo Qizilqumning shimoli-sharqiy qismini shakllantirgan. Zarafshon daryosi ming yillar davomida suv tarkibidagi loyqa qatlamlarini yotqizilishi natijasida Buxoro-Qorako'l geografik hususiyatini hosil qilgan. Oqchadaryo va Zarafshon daryosi havzasining geografik kengligi bir-biridan farq qiladi. Chunonchi Sho'raxon-Sulton Uvays tog'i o'rtasidagi hududning ikki qismga ajralishi Sulton Uvays tog'i bo'lsa, Zarafshon daryosi, uning irmoqlari ikki yon tomonga yoyilishi geografik kenglikni hosil qilgan (Buxoro-Qorako'l havzasi). O'zbekiston hududlarida harakat qilgan Amudaryo, Zarafshon va Sirdaryolarning suv tarkibidagi kimyoviy moddalarning darajasi quyidagicha bo'lgan.

№	Kimyoviy tarkibi	Amudaryo	Zarafshon	Sirdaryo
1.	Kremniy	50,0	52,40	45,32
2.	Bir yarim oksid	17,60	18,88	17,50
3.	Temir oksidi	2,47	5,07	2,43
4.	Alyumin oksidi	15	13,53	14,99
5.	Fosfor	0,13	0,18	0,08
6.	Ohak	12,0	10,81	14,70
7.	Magniy	1,81	3,44	1,94
8.	Natriy	1,64	1,76	2,34
9.	Kaliy	1,21	2,47	1,35 <sup>11</sup>

Jadvalda qayd qilingan ma'lumotlardan ma'lumki, Zarafshon daryosi suv tarkibidagi loyqa qatlamlarida kimyoviy moddalarning Amudaryo va Sirdaryolardan ustunligi kuzatiladi.

Shu tariqa yuqorida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar asosida yakuniy xulosaga kelish mumkin:

–Amudaryo va Sirdaryolarning faoliyati natijasida janubiy Orolbo'yi va Quyi Zarafshon vodiysi neolit davrida odamzodning kasbi-korlarini olib borishiga keng imkoniyat yaratgan. Maskur geografik hududlarning insoniyat tomonidan o'zlashtirilishi so'ngi tosh davri ovchi va termachilarining vorislari tomonidan amalga oshirilishi natijasida Jonbos-4 va Darvozaqir-1 manzilgohlari bunyod qilingan.

– Yuqorida qayd qilingan manzilgohlarda istiqomat qilgan ona urug'i aholisining olib borgan xo'jalikning iqtisodiy tizimi o'zlashtiruvchi xo'jalik bo'lgan.

– Neolit davri jamiyatining o'ziga hos hususiyatlaridan biri insoniyatning mavjud bo'lgan tabiiy manbalaridan unumli foydalanib kundalik faoliyatlarida xo'jalik va madaniy sohalarda kashfiyotlar qilganlar.

<sup>11</sup> Muhammadjonov A. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi. –T.Fan. 1972.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. –Тошкент. “Ўқитувчи”. 1996.
2. Баратов П, Маматкулов М, Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. – Тошкент. “Ўқитувчи”. 2002.
3. Виноградов А.В, Итина М.А, Кесь А.С, Мамедов Э.Д. Палеогеографическая расселения человека в пустынях Средней Азии//Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене.-М, Наука. 1974.
4. Кабиров Ж. Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси.- Тошкент.1990.
5. Виноградова А.В. Первые палеолитические находки в Султануиздаге //Археология Приаралья в древности и средневековье. –М. Наука. 1998.
6. Ягодин В.Н, Бижанов Е.Б. Археологические работы на Устюрте//АО 1973 года. – М. Наука. 1974.
7. Бижанов Е.Б. Верхнепалеолитические местонахождения с Юго Восточного Устюрта//Вестник ККФ. АН Уз ССР. №1.1980.
8. Бижанов Е.Б. О находках памятников каменного века впадины Шахпахты // Вестник ККФ. АН Уз ССР. №1.1983.
9. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья (II-начало I тысячелетия до.н.э) // ТР ХАЭЭ-М: Наука, 1977-№X.
10. Виноградова А.В. Первые палеолитические находки в Султануиздаге //Археология Приаралья в древности и средневековье. –М. Наука. 1998.
11. Muhammadjonov A. Quyı Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi. –T.Fan. 1972.